

IBORALARDA MA'NO TARAQQIYOTI VA USLUB TRANSFORMATSIYASI

O'razboyev O. R.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Annotatsiya:

Iborada ma'no tugalligiga mantiqiy ta'kid yuklanadi. Ushbu maqolada iboralarda ma'no taraqqiyoti va uslub transformatsiyasi mavzusiga alohida to'xtalib o'tildi. Shuningdek, iboralarning xususiyat shaklda kengayishi frazema tabiatini belgilashi haqida fikr mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: Transformatsiya, badiiy mushohada, grammatikalizatsiya, lug'aviy birliklar, grammatik-leksik-frazeologik mantiq, polisemiya, frazeologik qator.

Abstract:

A logical emphasis is placed on the completeness of meaning in the phrase. In this article, the theme of development of meaning and transformation of style in phrases was specially discussed. It is also suggested that the characteristic expansion of expressions determines the nature of a phrase.

Keywords: Transformation, artistic observation, grammaticalization, lexical units, grammatical-lexical-phraseological logic, polysemy, phraseological series.

Аннотация: Логический акцент делается на полноте смысла во фразе. В данной статье специально обсуждалась тема развития смысла и трансформации стиля во фразах. Предполагается также, что характерное расширение выражений определяет характер фразы.

Ключевые слова: Трансформация, художественное наблюдение, граммати́зация, лексические единицы, грамматико-лексико-фразеологическая логика, полисемия, фразеологический ряд.

Amaliyotda ibora nutqqa aniqlik, yorqinlik, ta'sirchanlik, bo'yoqdorlik va betakrorlik baxsh etishi e'tirof etilgan hodisa. To'g'rirog'i, badiiy mushohada fusunkor tabiati - til ishlanganlik darajasi - ifoda takomili frazema tabiatini belgilaydi. Binobarin, barqaror lug'aviy birliklar umumxalq so'zlashuv uslubidan



ijodiy talqinga o'tadigan zinapoya vazifasini bajaradi. Shu tariqa, tushuncha nutqiy-lisoniy munosabat yaxlitligini umumlashtiradi. Unda ma'no o'zgarishi, hayotiy asos va til munosabati omuxtalashadi.

Millat arsenalidan o'sib chiqadigan muhokama tahlili badiiy nutq hodisasini hosil qiladi. Vaholanki, kommunikativ aloqada hissiy idrok - aqliy tajriba bir-birini mantiqan to'ldiradi. Fanda transformatsiya (lot. transformatio – qayta o'zgarish, qayta hosil bo'lish) hodisasi genetika faniga mansub atama hisoblanib, hujayralarda yot DNK paydo bo'lishi bilan vujudga keladigan irsiy o'zgarish jarayonini tavsiflaydi. Unda o'ziga xoslik va tafovut aloqaga kirishadi hamda uchinchi gen maydonga chiqadi. Sifat jihatdan takomillashgan individ ikkala gen faol ko'rsatkichlarini jamlaydi. Lingvistikaga kirib kelgan istiloh esa ustama ma'noni ko'chirish usuli sifatida qo'llaniladi. Unda shakl, mazmun va vazifa tayanch markaz vazifasini o'taydi. Zotan, "til elementlarining transformatsiyalanishi natijasida leksik ma'noni grammatik ma'noga transformatsiya qilish (ko'chirish) asosida grammatikalizatsiya hodisasi, birikma ma'nosi so'z ma'nosiga transformatsiyasi asosida leksikalizatsiya hodisasi yuzaga kelishi e'tirof etiladi. Shuningdek, so'z birikmasi va frazeologik birliklar tarkibiy va ma'noviy transformatsiyasi asosida frazeologizatsiya hodisasi yuzaga keladi"¹. Iqtibosda bir nechta jihat e'tiborni tortadi: birinchidan, ma'no ko'chirish yo'sini grammatik-leksik-frazeologik mantiq izchilligida amalga oshadi, ikkinchidan, shakl, mazmun va uslub transformatsiyasi birikma uzual hamda okkazonal qo'llanilish doirasini hosil qiladi, uchinchidan, jarayonda sintaktik tanlov va mustaqil bog'lovchi bir-birini taqozolaydi. Shu jihatdan, transformatsiyada leksik ma'no nisbiyligi semantik ma'no o'zgaruviga zamin hozirlaydi.

Ma'lumki, frazeologiya nazariyasi asoschisi shveytsar olimi Sharl Balli (1865 - 1947) hisoblanadi. Tilshunos so'z birikmalarini «Stilistika ocherki» va «Fransuz uslubiyati» asarlarida muayyan tizimga soladi. Ikkala risolada ham iboralarga maxsus bob ajratilgan. Birinchi tadqiqotda tilshunos so'z birikmalarini shartli ravishda to'rt guruhga ajratadi:

- 1) erkin so'z birikmalari (les groupements libres), unda shakllanishdan so'ng o'z barqarorligini yo'qotgan so'z birikmalari tanlovi o'rin olgan;
- 2) odatiy birikmalar (les groupements usuels), ya'ni komponentaro aloqada nisbatan daxlsiz so'z birikmalari, masalan, une grave maladie -jiddiy dard (une dangereuse, serieuse maladie – xavfli, jiddiy dard);
- 3) frazeologik qator (les series phraseologiques), so'z qatlamlari. Unda barqaror so'z birikmalari xos ma'nodoshligi aks etadi. Xususan, remporter une victoire - zafar



quchmoq, (courir un danger) - havfni bartaraf etmoq. Bu guruhda aks etgan birikmalar bir-biriga nisbatan tenglik saqlaydi.

4) frazeologik birliklar (les unites phraseologiques), unda o'z mohiyatini yo'qotgan holda yaxlit ifoda mazmuniga itoat etadigan birliklar aks etadi. Shunday qilib, Balli so'z birikmalarini tabiatiga muvofiq ravishda, mustaqil hamda barqaror so'z birikmalariga ajratadi.

Sharl Balli iste'molga «uslubiyat bo'limi, so'z birikmalari munosabatini o'rganish» ma'nosini bildiradigan phraseologie atamasini kiritadi, biroq, atama g'arbda uch xil ma'noda qo'llaniladi: 1) so'z tanlovi, ifoda shakli, shamoyil; 2) til, bo'g'in, uslub; 3) ifoda, so'z birikmasi. Joriy holat ingliz hamda Amerika lug'atlarida quyidagicha aks etadi:

Aslida frazeologiya tabiatini so'znint metafora, timsol, tasavvur va ekspressiv-emotsional bo'yoqdorlik imkoniyatlari belgilaydi. Gap muallif ijodiy kredosiga bo'ysundirilgan ifoda madaniyati xususida bormoqda. Jumladan, «bezovta o'ungil» (A.Orif), «daydi shamollar», «Qora bulut» (R.Parfi), «dil sarafroz» (E.Vohidov), «ishk sharobi» (Faxriyor), «sukunatning tili» (B.Ro'zimuhammad) so'z birikmalari xos tasvir usuli sifatida namoyon bo'ladi. Ayon bo'ladiki, frazeologik birlik o'zgaras belgi-xususiyat hosilasi, unda ijodiy tanlov cheklangan bo'lib, asosan, ifoda qo'llanmasi birinchi o'ringa chiqadi. Shunga qaramasdan, o'zbek tilidagi ijodiy frazema tahlili ma'no, shakl va ifoda qo'llanmasi xususiyatlariga muvofiqqligini ta'kidlash joiz: doimiy o'zgaras belgi o'z-o'zicha ham, materiyaaro uyg'unlikda ham somatik talqin kategorial, aniqlovchi, tafovut va taqsimlovchi sifat darajasini dalolatlamaydi. Tasvir yangilanishi fiziologik holatdan badiiy mohiyatga ko'chadi. Shakl barqarorligi va ma'no siljishi istiloh tavsifini aniqroq izohlashga yordam beradi. Muhokamadagi yorqinlik formal nisbatni mazmun yurishiga qarshilantirish vositasida amalga o'shadi. O'z navbatida, ijodiy belgi uning yetakchi lingvistik mohiyati atributi hisoblanadi. Unda «materiya mohiyati hamisha ma'no yaxlitligiga tayanadi. Yangi ma'no tarmog'i hosilasi so'zda ma'no ko'chimi qo'llanmasi uyushmasida namoyon bo'lib, bir hodisa nomini ikkinchisiga nisbat beradi. So'z ifodasi ma'no ko'chishi voqelik mushtarakligi yoxud belgi jamuljamiga yo'naltiriladi, unda barcha ma'no qatlamlari markazlashadi.

Ko'p ma'nolilikka qaramay, so'z semantik birlikka intiladiki, natija o'laroq tushuncha semantik strukturasi shakllanadi. So'z nutqiy daraja ko'rsatkichi ma'no nisbiy tafovuti polisemiya hodisasini hosil qiladi. Semantik struktura shakllanish qonuniyatlari aynan ichki mohiyat kengayishini tayin etadi. Iborada ma'no tugalligiga mantiqiy ta'kid yuklanadi. Xususiyat shaklda kengayishi frazema



tabiatini belgilaydi. Ma'no bog'lami barqarorligi istiloh o'ziga xosligini ta'minlaydi. To'g'rirog'i, turg'un so'z birikmalarida asosiy e'tibor materiyaga emas, balki ma'no yaxlitligiga qaratiladi. Bir snitaktik uyaga birlashadigan frazemalarda so'z ma'no takomilini yo'qotadi.

So'z birikmalarining nutqiy intizomida grammatik qoida murakkab birikuv tizimiga ega ijodiy birikmalar, garchand, mushohada mantig'i nazoratiga tayansa-da, yaxlit birliklar sanaladi, ayni paytda, frazeologik konstrukt u yoki bu qirrani oydinlashtiradi yohud yaratilmaydi, balki nutqda yaxlit tarzda voqe bo'ladi. Xususan, «tilga kirmoq» iborasi, yosh xususiyatiga dahldor ravishda matnda real salmoq kasb etadi. Go'dakning tilga kirishi fiziologik jarayon. Kamgap insonlarga nisbat berilganda, ibora ma'no tarmog'i kengayadi. Solishtiring: « - Nodir aka, deya bir mahal tag'in tilga kirdi Nozima, - Men sizga xat yozgandim». [N.Ismoilov. Baxtning olis manzili. 5.]. Tilga kirmoq - nutqqa ega kishining so'zlashi, indamay yurgan kishi gapiradigan bo'lib qoldi. Shunday ekan, lug'aviy yaxlitlikaro munosabat frazema tabiatini belgilaydi. Ba'zi olimlar «fazeologizm» istilohini so'z birikmalari tasavvuri bilan bog'lashadi. (Bu haqda qarang: N.M.Shanskiy. Leksikologiya sovremennogo russkogo yazika. M,1972). Rus tilshunosi V.V.Vinogradov frazeologik birikuv tizimi grammatik jihatdan so'z birikmasidan katta bo'lmasligini qayd etadi. Bu holat frazema tabiatini frazeologik birlik, frazeologik shakl sifatida taqsimotga olib keladi. Bizningcha, mazkur ajratish nazariy chalkashliklarga olib keladi. Negaki, ifoda madaniyati uzvi-fazeologiya semantik, morfologik-sintaktik va uslubiy tafovutga ega tushuncha. Unda ibora doimiy o'zgarmas belgi-sifat-xususiyat yig'indisiga aylanadi. Rus tilshunosligida ibora mohiyatini belgilashda bir xillik kuzatilmaydi. Garchand, tushuncha faol iste'moldagi ilmiy atama sanalsa-da, umumnazariy adabiyotlarda ham, maxsus tadqiqotlarda ham «frazema» hajmi nisbiy ahamiyat kasb etadi. V.V.Vinogradov asosan, istiloh grammatik xususiyatlariga alohida urg'u bersa, N.M.Shanskiy barqaror va erkin so'z birikmalari aloqasidan ibora o'sib chiqishini e'tirof etadi. (N.M.Shanskiy «Leksikologiya sovremennogo russkogo yazika» M., 1972). Hatto ba'zi tilshunoslar frazema tabiatini so'z birikmalarini idrok etish bilan cheklashadi. (Bu haqda qarang: A.I.Molotkov. Frazeologicheskiy slovar russkogo yazika. M., 1978.). O'z o'rnida ayrim mutaxassislar frazeologizm jamg'armasiga tildagi barcha barqaror so'z birikmalarini kiritishni tavsiya qilishsa, ba'zi olimlar til frazeologik tizimini muayyan barqaror so'z birikmalari qatlami bilan cheklashni ma'qul ko'rishadi. Odatda, lingvistika fani muhim vazifalaridan biri maqol, matal, hikmatli so'z va aforizmlar frazemaga munosabatini oydinlashtirib olish joiz. Vaholanki,



istilohlararo jiddiy tafovut kuzatilmaydi. «Qanotli soʻzlar», «koʻchib yuradigan soʻzlar» ham tayyor ifoda malakasini tavsiflaydi. Zotan, barcha tur barqaror soʻz birikuv tizimi nutqiy jarayonda voqe boʻlmaydi, balki shakllangan tasavvur yaxlitligi sifatida namoyon boʻladi. Tadqiqot obyekti ibora tabiatining lugʻatlarda izohlanish tamoyillari bilan bogʻliq, vazifa va uslub mudomi eʼtiborimizda boʻladi. Ayni paytda, matal, maqol va hikmatli soʻzlarni frazeologik konstruksiyaga kiritmaslik maqsadga muvofiq keladi. Birinchidan, frazema grammatik aloqani taʼmin etadigan birikuv, moslashuv va bitishuv usullariga tayanadi, ikkinchidan, aforizm tabiati (mantiqiy tugal gapga yaqinlik) soʻz birikmasidan yuqori turadi, uchinchidan, iborada soʻz semantikasi hamda sintaksisi jiddiy evrilishlarga uchraydi. Shunday ekan, frazemada soʻz birikmalari nisbiy barqarorligi kuzatilsa, matal, aforizm hamda maqollarda esa toʻliq ssemantik barqarorlik saqlanishi seziladi. Frazelogizm, xususan, nutqiy polisemiya oʻziga xos kategoriyaga dahldor xususiyatlarga ega: bu holat, bir tomondan, uni mustaqil til birligi sifatida anglashga zamin hozirlasa, ikkinchi tomondan, iborani boshqa lisoniy konstruksiyalardan tafovutlash imkonini beradi. Mazkur sifat koʻrsatkichini shartli ravishda quyidagi tizimga solish mumkin:

Lugʻaviy maʼno.

Yaxlit komponentlararo intizom

Grammatik kategoriyalar muayyanligi.

Frazeologik formulada lugʻaviy maʼno hamda grammatik kategoriya mazmun tomonni qamrab olsa, komponentlararo ichki aloqa yaxlitligi shakl darajasini namoyon etadi. Aslida shakl va mazmun birligi (dixotomiyasi) tasavvurdan tasvirga, tasvirdan tahlilga, tahlildan talqinga, talqindan ifodaga oʻtib turadi. Shu bois, ular dialektik munosabatini inkor etish sogʻlom mantiqqa zid. Negaki, polisemik xarakterga yoʻnaltirilgan tugal ijodiy qoʻllanmada formal barqarorlik maʼno taʼkidini izohlaydi. Tilshunoslikda polisemiya hodisasi dastavval falsafiy jihatdan, keyinchalik uslubiy aspektda tahlil qilingan. Fransuz semasiologi M.Breal XX asr boshlarida polisemiyaga sof lingvistik nuqtai nazardan yondoshishni shakllantirdi¹. Taniqli rus tilshunosi A.A.Potebnya esa, "...qayerda ikki maʼno boʻlsa, oʻsha yerda ikki mustaqil shakl bor"² ligiga urgʻu beradi. Taʼkid zamirida polisemantik soʻz strukturasi tarkibida nechta maʼno boʻlsa, shuncha mustaqil soʻz mavjud, degan mushohada yotadi. Mutaxassis mulohazasi tildagi polisemiya hodisasini tan olmasligini eʼtirof etadi. Akademik L.V.Shcherba ham oʻzining mashhur "Ruscha-fransuzcha lugʻat" (1959)ining "Soʻz boshi"sida "Barcha soʻzlar shunchalik koʻp maʼnoli, shunchalik dialektal xususiyatga egaki, ularning barcha maʼnolarini bir



lugʻatda toʻla ochib berish ancha mushkul” , - degan edi. Daniyalik mashhur tilshunos Yespersen qayd qilishicha, “til polisemantik soʻzlardan xoli qilinganda edi, “lingvistik doʻzax”ga aylangan boʻlardi” . Darhaqiqat, lisoniy munosabatlar intizomini belgilaydigan tushuncha maʼno maydoni keng va tinimsiz ravishda toʻldiruvchi mohiyat kasb etadi.

«Frazeologik birlik nutq uchun tanlanar ekan, shu butunligi holida maʼno, faqat obrazli ifoda beradi. Uning tarkibidagi soʻz oʻzicha maʼno bermaydi. Buni frazeologizm tarkibidagi soʻz oʻzicha alohida hosila maʼnoga ega boʻlmaydi, deb tushunish kerak. Shunday ekan, polisemantik soʻzning semantik tarkibini frazeologik birlik tarkibidagi soʻz semantikasi bilan toʻldirish mumkin boʻlmaydi” - yozadi prof. M.Mirtojiyev. Darhaqiqat, ibora intizomida tushuncha nisbiy maʼno mustaqilligini yoʻqotadi va yaxlit maʼno bogʻlamiga tutashadi. Xususan, OʻTIL-5da «mayda qadam» soʻz birikmasi maʼnosi quyidagicha izohlangan: «orasi uncha katta boʻlmagan, lekin tez-tez tashlangan qadam» [OʻTIL-5, II, 527]. T.Malik «Shaytanat» romanida mazkur tushunchalararo birikuvni monosemantik frazema tarzida qoʻllaydi: «Bu yigitning xotin zotiga nafrati bor ekan», deyishmaydi, «maydaqadam boʻlsa kerak», deb hukm chiqarib kuyaverishadi» (T.Malik.Shaytanat., 137-138-betlar). Muallif soʻz birikmasidan «bepusht, zoti kuygan» maʼno yaxlitligini hosil qiladi. Maʼno birikuvi tarkibidagi tushuncha segmenti alohida olinsa, ibora mohiyati butunligi yoʻqoladi.

«Frazeologik tarkib ham leksik tarkib kabi rivojlanish va boyish, shuningdek, oʻzgarish jarayonida tilning ichki qonunlariga amal qiladi. Frazeologizmlarning hosil boʻlishi leksika bilan bogʻliq. Leksik fond qay darajada soʻzlar bilan boyib borsa, frazeologik fond ham shunchalik boyib boraveradi. Chunki frazeologizmlarning shakllanishi uchun birinchi manba leksemalardir. Frazeologizmlar leksemalarning oʻzaro shakllangan uyushmasi ekanligini unutmaslik kerak»-yozadi tilshunos A.Mamatov. Barqaror birikuv tizimini ifodalaydigan iborada ichki va tashqi omillar uygʻunligi kuzatiladi. Adabiy til lugʻat jamgʻarmasi boyib borishi frazeologik birliklarga ham taʼsir oʻtkazadi. Nutq madaniyati takomili uning rivojlanish qonuniyatlarini belgilaydi. Binobarin, til hodisasi sifatida ibora soʻz zahirasi kengaytiradi. Xos maʼno maydoni yaxlitligi istiloh tabiatini dalolatlaydi. Xususan, OʻTFLda «doʻppi tor keldi» iborasi quyidagicha izohlangan: «iloj-imkonsiz ogʻir ahvolga tushmoq» [OʻTFL, 79]: «Bu olam tobesi doʻppi tor kelib qolganida yoki kimdandir ustun kelmoqchi boʻlsa, zoʻrlardan birining nomini dastak qiladi» (T.Malik. Shaytanat., 351.). Frazeologik birikma nutqda voqe boʻlgan ruhiy holatni umumlashtiradi. Unda ifoda dasturi va



ma'no to'ldiruvchisi bir butunlik hosil qiladi. Bu o'rinda barqaror nutqiy birikma shaytanat olamida ko'zga tashlanadigan munosabatlarni tavsiflaydi. Sadoqat, vafo hamda oqibatdan mosuvo kas kimsalarning hayoti achchiq va ibratomuz, dag'al va shafqatsiz.

«Frazeologizm til birligi sifatida murakkabligi, uning ma'nan yaxlitligi bilan alohida shakllangan shakli o'rtasidagi ziddiyat, nomoslik, iboradagi dolzarb va etimologik ma'nolar nomuvofiqligi ularning nutq jarayonida qo'llanishini qiyinlashtiradi»- e'tirof etadi prof. B.Yo'ldoshev. Darhaqiqat, ma'no tarmoqlari ichki taqsimoti ibora tabiati ziddiyatlarini tavsiflaydi. Shakl va mazmunaro yaxlitlik tafovuti masala yechimini teranlashtiradi. Frazeologik qatlam hayotiy maishat ehtiyoji sifatida, bir tomondan, timsoliy-hayoliy tasavvur aniqligiga asoslansa, ikkinchi tomondan, hissiy-aqliy tiynat aniqlovchisi vazifasini bajaradi. Ma'no va ustqurma evrilishlari ibora sayqal topishiga yordam beradigan omillardan biri, unda genetik kod semantik barqarorlikni ta'minlaydi. Umuman olganda, inson dunyoni bir butun holatda ko'rib tushunadi hamda moddiy olamning o'zaro aloqadorligi asosida ularni bir-biri bilan qiyoslab, uzluksiz harakatdaligi va eskisi o'rniga yangisi kelib turishi holatida anglaydi. To'g'rirog'i, odamzod tabi-ruhiyati muqoyasa o'zaro muvofiqliligiga tayanadi. Taqqoslash tabiiy tarzda shakllansagina, odamzod tasavvuri uni qabul qiladi. Bu jihatdan polisemiya inson ma'rifati xarakteri bilan bog'liq bo'lib, unda millat bilim sajiyasi aks etadi. To'g'ri, dunyoqarash izchilligi mahraj ma'no tugalligini tavsiflaydi, unda semantik tasnif mohiyat ittifoqini tayin qiladigan vositaga aylanadi. Bundan ko'rinadiki, polisemiya hodisasi tilning ham nazariy, ham amaliy sarhadlarini birlashtiradigan istiloh sanaladi. Bu hodisaning nazariy tomoni tilning semantik jihatdan taraqqiyotini, davrlar o'tishi bilan til boyligi oshib borayotganini chuqurroq anglashga yordam beradi. Polisemiyaning amaliy tomoni esa so'z va iboralarni lug'atlarda, darslik va qo'llanmalarda izohlash, turli xil lug'atlar tuzish, tarjima jarayonini yanada takomillashtirishda batafsil va yorqinroq tarzda namoyon bo'ladi. Joriy tilshunoslik tadrijida lug'aviy, grammatik va frazeologik polisemiya masalalariga bag'ishlangan qator tadqiqotlar e'lon qilingan. Masalan, O. S. Axmanovanning tadqiqotida omonimiya va polisemiya o'ldiruvchi xarakterli belgilar rus tili materiali asosida chuqur tadqiq etilgan. Unda ikki bir-biriga yondosh lingvistik hodisa mohiyati ochib beriladi. O'zbek tilshunosligida polisemiya hodisasi dastlab lug'aviy-semasiologik yo'nalishda tadqiq etildi. Masalan, T.Aliqulovning "O'zbek tilidagi ot turkumiga oid so'zlarda polisemiya" mavzuidagi nomzodlik ishida polisemantik so'zlarni vujudga keltiruvchi leksik ma'nolarning hosil bo'lish usullari tadqiq etiladi. M.Sodiqovanning nomzodlik ishida



esa o'zbek tilidagi rang-tuye bildiruvchi so'zlarning semantik strukturasi tahlil qilingan . D.Bozorovning nomzodlik ishida turkiy tillardagi tana a'zolari nomlari (somatizmlar)ning semantik strukturasi, ularning ko'chma ma'no ifodalash xususiyatlari o'rganilgan. Prof. M. Mirtojiyev «O'zbek tilida polisemiya» nomli monografiyasi o'zbek tilshunosligida muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, polisemiya hodisasi so'zlardagina emas, iboralarda ham keng tarqalgan. Ko'p ma'noli FBlar ikkitadan yettitagacha frazeologik ma'no ifodalashga xizmat qiladi. Biz o'rgangan ko'p ma'noli FBlarning 80 foizga yaqini asosan ikki ma'nolidir. Ko'p ma'noli FBlarni lug'atlarda leksikografik kodifikatsiyalashning aniq tamoyillari hozircha ishlab chiqilmagani uchun bunday iboralarni lug'atlarga kiritish, ularning ma'no miqdorini belgilash, komponent tarkibini va sintaktik qurshovini aniqlash sohasida o'zbek frazeologiyasi va frazeografiyasida bir xillikka erishilmagan. Masalaga oydinlik kiritish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. - Toshkent: Fan, 1983.- 88 b.
2. Abdullayev Sh. Tarjima asarlarda frazeologizmlar semantikasi (T.Qayipbergenov asarlarining o'zbekcha tarjimasi asosida). NDA. -Toshkent, 2006.-21 b.
3. Abdullayev Sh. O'zbek va qoraqalpoq tillaridagi «bosh qotirmoq» iborasi haqida // Til va adabiyot ta'limi, 2005, 1-son, 80-82-betlar.
4. Абдуназаров А. Некоторые вопросы развития лексики и фразеологии узбекского литературного языка 20-х годов (на материале сатирического журнала «Муштурм»), Avtoref. dis... kand. filol. nauk. - Tashkent, 1968. -23 s.

ⁱ The choice or arrangement of words and phrases in the expression of ideas; manner or style of expression; the particular form of speech or diction which characterizes a writer, literary production, language, etc.

Choice of words; wording (Hornby A.S. The Oxford Advanced Learners Dictionary of Current English. London, 1974)

Manner of using and arranging words (Longman Modern English Dictionary. London, 1976).

1.Manner or style of verbal expression; characteristic language;

2. Expression, phrases (The Random House Dictionary of the English Language. New York, 1970).

